INTERNATIONAL JOURNAL OF STATISTICAL ANALYSIS

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 23.11.2026
PUBLISHED: 24.11.2026

Forming Environmental Concepts in Preschool Children: Content, Pedagogical Opportunities, and Theoretical and Methodological Foundations of Using Multimedia Tools

Xurramova Malika Nuriddin qizi

First-year Master's student, Department of Primary and Preschool Education,

Kattakurgan State Pedagogical Institute

ABSTRACT

This article examines the pedagogical and psychological characteristics of developing environmental awareness among preschool children, the content of environmental education, and the pedagogical opportunities for its implementation. It also analyzes the theoretical and methodological aspects of using multimedia tools in the preschool education process. Particular attention is paid to developing children's attitudes toward nature, their initial knowledge about the environment, elements of environmental culture, and behavior aimed at protecting nature. The use of multimedia tools, including their advantages such as visualization, interactivity, and the presentation of educational materials in an accessible and engaging form, is substantiated as one of the effective means of developing environmental awareness among preschool children.

Keywords

preschool education, environmental education, environmental awareness, environmental culture, nature, environment, multimedia, information and communication technologies, pedagogical process, child development.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tasavvurlarni shakllantirish: mazmuni, pedagogik imkoniyatlari va multimedia vositalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari

Xurramova Malika Nuriddin qizi.

Kattaqo`rg`on Davlat Pedagogika instituti oliy ta`lim muassasasi, Boshlang`ich va maktabgacha ta`lim kafedrasi 1-kurs magistranti

Gmail: xmalika70@gmail.com

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

INTERNATIONAL JOURNAL OF STATISTICAL ANALYSIS

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 23.11.2026
PUBLISHED: 24.11.2026

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tasavvurlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, ekologik ta’lim mazmuni va uni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning nazariy va metodik jihatlari tahlil qilinadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning tabiatga munosabati, atrof-muhit haqidagi dastlabki bilimlari, ekologik madaniyat elementlari va tabiatni asrashga yo‘naltirilgan xulq-atvorini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Multimedia vositalarining ko‘rgazmalilik, interfaollik, ta’limiy materialni tushunarli va qiziqarli shaklda taqdim etish kabi imkoniyatlaridan foydalanish ekologik tasavvurlarni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, ekologik tarbiya, ekologik tasavvur, ekologik madaniyat, tabiat, atrof-muhit, multimedia, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik jarayon, bolalar rivojlanishi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещены педагогико-психологические особенности формирования экологических представлений у детей дошкольного возраста, содержание экологического образования и педагогические возможности его реализации. Также анализируются теоретические и методические аспекты использования мультимедийных средств в процессе дошкольного образования. Особое внимание уделяется формированию у детей дошкольного возраста отношения к природе, первоначальных знаний об окружающей среде, элементов экологической культуры, а также поведения, направленного на охрану природы. Обосновано, что использование таких возможностей мультимедийных средств, как наглядность, интерактивность и представление учебного материала в доступной и увлекательной форме, является одним из эффективных средств развития экологических представлений у детей дошкольного возраста.

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 23.11.2026
PUBLISHED: 24.11.2026

Ключевые слова: дошкольное образование, экологическое воспитание, экологические представления, экологическая культура, природа, окружающая среда, мультимедиа, информационно-коммуникационные технологии, педагогический процесс, развитие детей.

Kirish

Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona

foydalanish va ekologik muammolarning oldini olish insoniyat oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ekologik muammolarning tobora kengayib borishi yosh avlodda tabiatga ongli va mas’uliyatli munosabatni shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Bunday tarbiya esa inson hayotining dastlabki bosqichlaridan boshlanishi maqsadga muvofiqdir.

Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi bolaga tabiat haqidagi ma’lum hajmdagi bilimlarni berish bilangina cheklanmaydi. Muhimi, bola o‘zining tabiat bilan chambarchas bog‘liqligini anglay olishi, tirik va notirik tabiat obyektlarini farqlashi, o‘simlik va hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilishi, suv, havo va boshqa tabiiy boyliklarni asrash zarurligini tushunishi hamda kundalik faoliyatida ekologik jihatdan maqbul xatti-harakatlarni namoyon etishidir.

Mazkur jarayonda an’anaviy ta’lim vositalari bilan bir qatorda multimedia vositalaridan foydalanish ham katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Rasm, animatsiya, video, audio, interaktiv topshiriqlar va elektron ta’limiy materiallar orqali ekologik hodisalarni bolaga yosh xususiyatlariga mos, tushunarli va qiziqarli tarzda mumkin.

1.Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tasavvurlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari

Ekologik tasavvur — bolaning tabiat, uning tarkibiy qismlari, tabiat hodisalari, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar hamda atrof-muhitni asrash zaruriyati haqidagi dastlabki bilim va tasavvurlari majmuasidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tasavvurlar bir zumda shakllanmaydi. Ular bolaning tabiat bilan bevosita muloqoti, kattalarning tushuntirishlari, kuzatishlar,

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 23.11.2026
PUBLISHED: 24.11.2026

tajribalar, o‘yinlar va amaliy faoliyat jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanadi. Mazkur yoshda bola ko‘proq aniq-obrazli tafakkurga tayanishi sababli ekologik mazmundagi abstrakt tushunchalarni bevosita misollar, tasvirlar va amaliy harakatlar orqali tushuntirish maqsadga muvofiq.

Masalan,” atrof-muhitni muhofaza qilish” tushunchasini nazariy tarzda izohlasak, suvni isrof qilmaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, ekinlarni payhon qilmaslik, hayvonlarga ozor bermaslik kabi kundalik xatti-harakatlar orqali tushuntirish samaraliroq buladi.

Ekologik tasavvurlarni shakllantirish jarayonida uchta o‘zaro bog‘liq komponentni ajratish mumkin:

birinchidan, bilim komponenti — bola tabiat obyektlari va hodisalari haqida boshlang‘ich bilimlarga ega bo‘ladi;

ikkinchidan, hissiy-qadriyatli komponent — bolada tabiatga qiziqish, mehr, hayrat va g‘amxo‘rlik hissi shakllanadi;

uchinchidan, amaliy-xulqiy komponent — bola tabiatni asrashga qaratilgan oddiy amaliy harakatlarni bajarishni o‘rganadi.

Shuningdek, ekologik tarbiya jarayonida bolaning tabiiy qiziqishini qo‘llab-quvvatlash muhim. “Nima uchun yomg‘ir yog‘adi?”, “Nega daraxtga suv kerak?”, “Nima uchun qushlarga g‘amxo‘rlik qilish kerak?”, “Chiqindilarni nima uchun yerga tashlamaslik kerak?” kabi savollar bolalarda sabab-oqibat aloqalarini anglashga yordam beradi.

Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tasavvurlarni rivojlantirish jarayoni kuzatish – tushuntirish – tasvirlash – amaliy harakat – refleksiya ketma-ketligi asosida tashkil etilsa, uning pedagogik samaradorligi ortadi.

Bolaga tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, tarbiyachining eng muhim vazifalaridan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tasavvurlarini rivojlantirish mazmuni va pedagogik imkoniyatlari

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 23.11.2026
PUBLISHED: 24.11.2026

Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiyaning mazmuni bolalarning yosh imkoniyatlariga mos bo‘lishi lozim. Bolalarda ekologik tasavvurlarni yoshga qarab shakllantirishimiz kerak. Ekologik mazmunni o‘simliklar, hayvonlar, jonsiz tabiat, inson va tabiat munosabatlari hamda tabiatni muhofaza qilish yo‘nalishlarida tashkil etish mumkin.

O‘simliklar olami bilan tanishtirish jarayonida bolalar daraxt, o`simlik, gul, sabzavot va mevalarning xususiyatlari, ularning o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlar haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

Hayvonot olami bilan bog‘liq faoliyatda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarning yashash muhiti, oziqlanishi, harakatlanishi hamda insonning ularga munosabati haqida boshlang‘ich bilimlar shakllantiriladi.

Jonsiz tabiatni o‘rganishda suv, havo, tuproq, quyosh, yomg‘ir, qor va shamol kabi tushunchalar bolalarga yoshiga mos ravishda tushuntiriladi.

Inson va tabiat munosabati yo‘nalishida esa insonning tabiatdan foydalanishi va uni muhofaza qilishdagi mas’uliyati haqida boshlang‘ich tushunchalar beriladi.

Ekologik tarbiyaning muhim jihatlaridan biri — bilimni kundalik hayot bilan bog‘lashdir. Masalan, suvning inson hayotidagi ahamiyati haqida gapirish bilan birga, qo‘l yuvishda va boshqa kundalik ishlarimizda suvni behuda oqizmaslik amaliy harakat sifatida ko‘rsatilishi mumkin. Xuddi shuningdek, chiqindilarni maxsus joyga tashlash, xona o‘simliklarini parvarish qilish, qushlarga don berish kabi faoliyatlar ekologik bilimning amaliy ko‘nikmaga aylanishini ta’minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ta’limni integratsiyalashgan tarzda tashkil etish ham muhim. Ekologik mazmunni nutq o‘stirish, tasviriy faoliyat, musiqa, matematika, atrof-muhit bilan tanishtirish va o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtirish mumkin. Zamonaviy tadqiqotlarda ham maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuv hamda ta’lim tashkiloti va oila hamkorligining ahamiyati qayd etilgan.

Ekologik ta’limning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishda innovatsion metodlar ham muhim o‘rin tutadi. Jumladan, muammoli vaziyatlar, ekologik didaktik

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 23.11.2026
PUBLISHED: 24.11.2026

o‘yinlar, loyihalar, kuzatishlar, oddiy tajribalar va interfaol topshiriqlardan foydalanish bolalarning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Bunda pedagogning asosiy vazifasi tayyor bilimni berish emas, balki bolani kuzatishga, savol berishga, taxmin qilishga, taqqoslashga va xulosa chiqarishga yo‘naltirishdan iborat.

Masalan, “Agar o‘simlikka bir necha kun suv bermasak nima bo‘ladi?” degan muammoli savol asosida bolalar o‘simlikni kuzatishlari, o‘z taxminlarini bildirishlari va natijani amaliy tajriba orqali aniqlashlari mumkin.

Bunday yondashuv ekologik bilimni mexanik yodlashdan ko‘ra, bolaning shaxsiy tajribasi bilan bog‘lash imkonini beradi.

Maktabgacha ta’limda multimedia vositalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari

Bugungi raqamli ta’lim muhitida multimedia vositalari ta’lim mazmunini ko‘rgazmali, interaktiv va bolaga tushunarli shaklda taqdim etish imkonini beradi. Multimedia tushunchasi odatda matn, tasvir, ovoz, video, animatsiya va interaktiv elementlarning yagona axborot muhitida uyg‘unlashuvini anglatadi.

Maktabgacha ta’limda multimedia vositalaridan foydalanishning asosiy pedagogik afzalligi shundaki, bola bir vaqtning o‘zida bir necha sezgi kanallari orqali axborotni qabul qiladi. Masalan, tabiat hodisasi haqidagi ma’lumotni bola nafaqat tarbiyachining tushuntirishi orqali eshitadi, balki videotasvir orqali ko‘radi va tabiiy tovush orqali eshitishi mumkin.

Ekologik ta’limda multimedia vositalaridan foydalanishning quyidagi imkoniyatlarini ajratish mumkin:

tabiat obyektlarini vizual namoyish etish;

murakkab yoki uzoq davom etadigan jarayonlarni animatsiya orqali tushuntirish;

tabiat hodisalarini videolavhalar yordamida kuzatish;

ekologik vaziyatlarni interaktiv topshiriqlar orqali modellashtirish;

bolalarning mustaqil fikrlashi va tanlov qilish faoliyatini rag‘batlantirish;

ekologik mazmundagi o‘yinlarni tashkil etish;

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 23.11.2026
PUBLISHED: 24.11.2026

bolalarning qiziqishi va bilish faolligini oshirish.

Masalan, urug`ning nihol bulib unib chiqishi, keyin o`sib gullashi, meva tugishigacha jarayonini real vaqt davomida kuzatish qiyin. Multimedia animatsiyasi esa ushbu jarayonni qisqa vaqt ichida bolaga tushunarli ko‘rinishda namoyish etish imkonini beradi.

Shuningdek, multimedia vositalari yordamida bolaning bevosita kuzatishi qiyin bo‘lgan ekologik obyekt va hodisalarni taqdim etish mumkin. Masalan, dengiz tubidagi hayvonlar, uzoq hududlardagi o‘rmonlar, qushlarning migratsiyasi yoki vulqonlarning otilishi zilzilalar kabi hodisalar videomaterial va animatsiyalar yordamida ko‘rsatiladi.

Biroq multimedia vositalaridan foydalanish real tabiat bilan bevosita muloqotning o‘rnini bosmasligi kerak. Aksincha, raqamli vosita real kuzatish va amaliy faoliyatni to‘ldiruvchi pedagogik vosita sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Biroq multimedia vositalaridan foydalanish real tabiat bilan bevosita muloqotning o‘rnini bosmasligi kerak. Aksincha, raqamli vosita real kuzatish va amaliy faoliyatni to‘ldiruvchi pedagogik vosita sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Masalan, avval bolalarga daraxtning tuzilishi haqidagi qisqa animatsiya ko‘rsatiladi, keyin ular maktabgacha ta’lim tashkiloti hududidagi daraxtni kuzatadilar, uning barglari va tanasini ko‘rib chiqadilar. Yakunda multimedia materialiga qaytib, real obyekt bilan ekrandagi tasvir taqqoslanadi. Bunday yondashuv virtual va real tajribani o‘zaro bog‘laydi.

Multimedia vositalaridan foydalanishda yoshga moslik, mazmuniy aniqlik, qisqalik, interaktivlik va pedagogik maqsadga muvofiqlik asosiy mezonlar sifatida qaralishi lozim.

Birinchidan, multimedia materiali bolaning yoshiga mos bo‘lishi kerak. Haddan tashqari murakkab terminlar va ko‘p miqdordagi axborot bolaning bilish faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 23.11.2026
PUBLISHED: 24.11.2026

Ikkinchidan, materialning mazmuni ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi zarur. Bolalarga ekologik hodisalarni tushuntirishda noto‘g‘ri yoki ortiqcha soddalashtirilgan ma’lumotlardan foydalanish keyinchalik noto‘g‘ri tasavvurlar shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, multimedia vositasi bolaning faol ishtirokini ta’minlashi kerak. Faqat video namoyish qilishdan ko‘ra, “Toping”, “Taqqoslang”, “Nima uchun?”, “Qanday yo‘l tutish kerak?” kabi interaktiv savol va topshiriqlardan foydalanish samaraliroqdir.

To‘rtinchidan, multimedia mashg‘ulotlari pedagogning izohi va bolalarning mustaqil faoliyati bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

Shu asosda maktabgacha ta’lim tashkilotida ekologik mazmundagi multimedia mashg‘ulotlarini quyidagi pedagogik algoritm asosida tashkil etish mumkin:

motivatsiya → multimedia namoyishi → savol-javob → interaktiv topshiriq → amaliy faoliyat → yakuniy xulosa.

Mazkur ketma-ketlik bolani passiv tomoshabindan faol ishtirokchiga aylantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tasavvurlarni shakllantirish va takomillashtirish bugungi maktabgacha ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ekologik tarbiya jarayonida bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ekologik bilimlarni hissiy munosabat va amaliy faoliyat bilan bog‘lash muhim pedagogik shart hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik tasavvurlarni rivojlantirishda tabiatni bevosita kuzatish, amaliy mashg‘ulotlar, ekologik o‘yinlar, tajribalar va interfaol metodlar bilan bir qatorda multimedia vositalaridan foydalanish ham katta pedagogik imkoniyatlarga ega.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik tasavvurlarni rivojlantirishda tabiatni bevosita kuzatish, amaliy mashg‘ulotlar, ekologik o‘yinlar, tajribalar va interfaol

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 23.11.2026
PUBLISHED: 24.11.2026

metodlar bilan bir qatorda multimedia vositalaridan foydalanish ham katta pedagogik imkoniyatlarga ega.

Multimedia vositalari orqali ekologik mazmundagi bilimlarni vizual, audio va interaktiv shaklda taqdim etish bolalarning qiziqishi va bilish faolligini oshirishi, tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlarini konkretlashtirishi hamda ekologik xatti-harakatlarning mazmunini tushunishiga yordam berishi mumkin.

Biroq multimedia vositalaridan foydalanishning samaradorligi ularning mavjudligi bilan emas, balki pedagogik maqsadga muvofiq tanlanishi va real tabiat bilan bog‘langan holda qo‘llanilishi bilan belgilanadi. Shu sababli multimedia vositalari maktabgacha ta’limda tabiatning o‘rnini bosuvchi emas, balki bolalarning real ekologik tajribasini boyituvchi didaktik vosita sifatida qaralishi lozim.

Kelgusida mazkur yo‘nalishda multimedia asosidagi ekologik mashg‘ulotlarning diagnostik mezonlarini ishlab chiqish, bolalarning ekologik tasavvurlarini rivojlantirish samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlash hamda tarbiyachilar uchun ekologik multimedia resurslari majmuasini yaratish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son qarori. “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.

2.Kamilova G. A. Maktabgacha yosh bolalarda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirish metodikasi. 2025.

3.Kubayeva M. B. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishda vizual texnologiyalarning o‘rni. 2024.

4.Fayziyeva M. O. Zamonaviy ta’limda multimedialardan foydalanishning dolzarbligi va pedagogik ahamiyati. “Pedagogik mahorat”, 2024.

5.Ergasheva M. K. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ekologik ta’lim va tarbiyaning ahamiyati. 2023.

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

ISSN: 2690-2265
ACCEPTED: 23.11.2026
PUBLISHED: 24.11.2026

6.Radjabova G. Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiya berishda innovatsion metodlar. “Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar”, 2024.

7.Ahmatova F. X. Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiya: dolzarb muammolar va yechimlar. 2025.

8.Sulaymonova S. U. Interaktiv vizual ta’lim vositalari orqali o‘quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari. 2025.

9.Yo‘ldosheva M. J. Maktabgacha yoshdagi bolalarga hasharotlar orqali ekologik tarbiya berishning innovatsion pedagogik texnologiyalari. 2026.

10.Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari, shakl va vositalari. “Maktabgacha va maktab ta’limi”, 2026.

https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/